



URBANIZATION PROCESSES AND DEVELOPMENT OF CITIES IN KASHKADARYA REGION

Anvar Tursunov

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Senior Lecturer

Termez State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Termez

E-mail: avar061484@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: urbanization, urban-type settlements, Karshi city, industry, multifunctional cities, labor resources, Guzar city, Shahrisabz city.

Received: 14.01.25

Accepted: 16.01.25

Published: 18.01.25

Abstract: Cities have been of great importance in the development of the civilization of Uzbekistan at different times. Today, demonstrating the importance of cities as socio-political, economic, scientific and cultural centers remains one of the urgent tasks facing the science of history. In this regard, the article discusses the urbanization processes and development of cities in the Kashkadarya region.

QASHQADARYO VILOYATIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA SHAHARLAR RIVOJLANISHI

Anvar Tursunov

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbekiston, Termiz

E-mail: avar061484@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, shahar tipidagi posyolkalar, Qarshi shahri, sanoat, ko'p funksiyali shaharlar, mehnat resurslari, G'uzor shahri, Shahrisabz shahri.

Annotatsiya: O'zbekiston sivilizatsiyasi rivojida turli davrlarda shaharlar muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bugungi kunda shaharlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ilm-fan va madaniyat markazlari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatish tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan, maqolada Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar rivojlanishini haqida so'z boradi.

УРБАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ И ГОРОДСКОЕ РАЗВИТИЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Анвар Турсунов

доктор философии (PhD) по истории, старший преподаватель

Термезский государственный педагогический институт

Узбекистан, Термез

E-mail: avar061484@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: урбанизация, поселки городского типа, город Карши, промышленность, многофункциональные города, трудовые ресурсы, город Гузор, город Шахрисабз.

Аннотация: города играли важную роль в развитии цивилизации Узбекистана в разные периоды. Сегодня показ значения городов как общественно-политических, экономических, научных и культурных центров остается одной из актуальных задач, стоящих перед исторической наукой. В связи с этим в статье говорится о процессах урбанизации и развития городов Кашкадарьинской области.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida urbanizatsion jarayonlar tarixiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Qashqadaryo viloyati shaharlarining joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoit, yer yuzasining tuzilishi, gidrografik rejim hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida kechgan. Janubiy mintaqa shaharlari orografik jihatdan tog', tog'oldi va tekislikda, gidrografik jihatdan daryo vodiylarida shakllangan. Viloyatda mamlakatimiz uchun eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari rivojlangan.

ASOSIY QISM

Mustaqillikning ilk yillarida shahar va tumanlarda sovet davriga xos bo'lgan atamalardan butunlay voz kechish talab qilinardi. Jumladan, 1992 yil 6-mayda Qashqadaryo viloyati Ulyanov tumanining nomi Kasbi deb, Ulyanovsk aholi punkti esa Mug'lon deb o'zgartirildi[4].

Qashqadaryo viloyati Muborak shahri aholisi soni 20 mingga yaqin ekanligi hamda shahar va tuman uchun bitta boshqaruv – hokimlik bo'lishi hisobga olinib 1992 yil 1 mart kuni tumanga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga o'tkazildi[5].

Mintaqada katta shaharlar ro'yxatiga 2014-yilda ko'hna Shahrisabz qo'shildi. Shahrisabz shahri aholisi o'sib borishi tufayli ko'plab mitti tumanlar, madaniy-maishiy va boshqa obyektlarni qurish avj oldi. Shu qurilishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1994 yili "Uzdavrlari" ilmiy-loyihalash institutining Qarshi bo'limi taqdim qilgan hujjatlar asosida Shahrisabz shahrining chegarasi ishlab chiqildi. Unga asosan shaharning 2005 yilgacha bo'ladigan ma'muriy chegarasi Shahrisabz tumanining 6 ta xo'jaliklari hududidan jami 1475,5 gektar yerni ajratish hisobiga belgilandi. Shahar chegarasiga kiritilayotgan hududda 16 ta

aholi punkti bor bo'lib, unda 12879 kishi yashagan. Aholi punktlarining umumiy maydoni 331,8 gektarni tashkil etgan[6].

2002 yil 26 yanvarda Qashqadaryo viloyatida tuzilgan ishchi guruh tomonidan Qarshi shahrining Qarshi, Koson va Chiroqchi tumanlari bilan aniq chegaralarini aniqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Komissiya tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga ko'ra shahar uch qismga: Qarshining o'zi, Shayxali qo'rg'oni va "Qarshiparranda" OXJ korxonasi hududidan iborat ekanligi aniqlandi. Shayxali qo'rg'oni Qarshi shahridan 3 km uzoqlikda joylashgan. "Qarshiparranda" OXJ korxonasi yer maydoni Chiroqchi tumanidagi Chorvador va A.Ikromov nomli jamoa-shirkat xo'jaliklari yerlaridan tashkil topgan hamda Eskianhor, Pistali, Po'lati ariqlari va Qarshi-Samarqand avtomobil yo'li bilan chegaralangan[7].

2006 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Shahrisabz shahri maydoni 3277,5 gektarga teng bo'lib, 90,36 ming aholi yashar, turar-joylarning umumiy soni 1372,88 ming kvadrat metrdan iborat edi. Ulardan 1 qavatli uylar 1210,52 ming kvadrat metr, 2 qavatli uylar 67,7 ming kvadrat metr, 2 qavatli tomorqali uylar 5 ming kvadrat metr, 4 qavatli uylar 89,6 ming kvadrat metrga teng bo'lgan[9].

2012 yil 1-dekabr holatiga ko'ra, G'uzorda 24,23 ming kishi yashar, umumiy maydoni 1202,25 gektar edi. Kishi boshiga 496,18 m²ni tashkil etgan. Uy-joy fondi 653,41 gektar yoki 588,78 ming m² dan iborat bo'lgan. Shahardagi mavjud bolalar bog'chalari 870 o'rinni, maktablar 4535 o'rinni, kasalxonalar 240 o'rin, poliklinikalar 982 smena-qabulni tashkil etgan. Qashqadaryo viloyati hokimining 2014 yil 4 yanvardagi X-1/01-sonli "G'uzor shahrini rivojlantirish bosh rejasi loyihasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori shaharning 2030 yilgacha bo'lgan rejasini belgilab berdi. Rejaga asosan 2030 yilda G'uzor aholisi 27 ming kishiga yetishi, umumiy maydoni 1757,7 gektarga borishi, kishi boshiga 549,28 m²ni tashkil etishi, uy-joy fondi 941,58 gektar yoki kishi boshiga 294,24 m² bo'lishi, bolalar bog'chalari 3616 o'rinni, maktablar 6080 o'rinni, kasalxonalar 497 o'rinni, poliklinikalar 1156 smena-qabulni tashkil etishi belgilandi. Suv ta'minoti yaxshilanib, kuniga 6 ming metr kub yoki kishi boshiga 187 litrni tashkil etishi, isitish tarmoqlari, chiqindini tashish yaxshilanishi ko'zda tutildi[8].

2009-yilda shaharlashuv jarayonidagi o'zgarishlar tufayli viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008-yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 43,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar, ayniqsa, Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Shahrisabzda bunday maqomga 18 ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabog'da 13 ta qishloqlar ega bo'lgan[3:130].

2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Qashqadaryoda 12 ta shahar va 123 ta shaharchalar mavjud bo'lib, umumiy urbanizatsiya darajasi 43 foizni tashkil etadi (12-jadval). Ulardan Qarshi

va Shahrisabz O'zbekistonning 18 katta shaharlari qatoriga kiradi (257 va 105 ming kishi, Kosonda 74 ming aholi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 37-40 ming aholi bor. Qolgan shahar manzilgohlarida aholi soni bundan ozroq[3:130].

Tahlillar shaharliklarning son jihatdan ortib borishi, birinchidan, viloyatning ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar, ya'ni yangi tashkil etilgan tuman markazlariga shahar maqomining berilishi, ikkinchidan, viloyatga chetdan kelayotgan migrantlarning asosan shaharlarda to'planishi, uchinchidan, voha shaharlarining qishloq joylardan deyarli farq qilmasligi va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, viloyat urbanizatsiya darajasining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan pastligi va tug'ilishning yuqori holatini doimiy saqlab kelmoqda. 2009-yilda urbanistik o'zgarishlar tufayli viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008-yildagi 24,6 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 43,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar, ayniqsa Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Shahrisabzda bunday maqomga 18 ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabog'da 13 ta qishloqlar ega bo'lgan. Qashqadaryoda shahar manzilgohlar soni va urbanizatsiya darajasi muntazam ortib bormoqda. Ayniqsa, viloyatning yuqori Shahrisabz mintaqasi shahar hosil qiluvchi omillarning (transport kommunikatsiyalari hamda tabiiy resurslar) ko'pligi sanoatni tez sur'atlar bilan rivojlanishiga, bu esa shaharlar to'ri zichligining ortib borishiga sabab bo'ldi. Bunday mintaqaviy xususiyatlar ko'proq viloyatning tabiiy sharoit va resurslaridan kelib chiqqan holda, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi va demografik vaziyatiga bog'liq.

Qashqadaryo viloyati shaharlarining funksional tiplari quyidagicha:

1. Ko'p funksiyali viloyat markaz – Qarshi shahri;
2. Ko'p funksiyali shaharlar – tuman markazlari – G'uzor;
3. Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – Gazli;
4. Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – tuman markazlari – Muborak;
5. Agrosanoat va servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari – Beshkent, Koson,

Yangi Nishon, Chiroqchi, Yakkabog', Qamashi, Kitob.

Sanoat iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanib, ko'p jihatdan uning zamonaviy qiyofasi va istiqbollari belgilab beradi. Har bir mintaqaning sanoat salohiyati xom ashyo, investitsiya, mehnat resurslari va boshqa omillarga bog'lik bo'lib. ular sanoat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gaz-kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), Sho'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda.

Qarshi, Qamashi va Shahrisabzda to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy — to'qimachi" QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "Sho'rtan neft-gaz" sho'ba korxonasi, Sho'rtangaz kimyo majmuasi hamda "Hisor neft-gaz" qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va SHO'rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft-gaz konlari yetakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini Sho'rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o'rinda Sho'rtan neft-gaz sho'ba korxonasi turadi[1:21]. Oltingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta'minlaydi[2].

Jami sanoat mahsulotining 16,9 foizi viloyat markazi — Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori — 43,2 foiz. Shuningdek, G'uzor tumanida ham sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada — 26,1 %. Demak, bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 86,2 foizini beradi. Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz Shahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog'i yaqin yillarda rivojlanib boradi.

XULOSA

Sanoat ishlab chiqarishi aholiga ko'plab ish o'rinlarini taklif qiladi, shaharlarning infratuzilmasi (yo'llar, elektr ta'minoti, suv ta'minoti va boshqalar) rivojlanadi, sanoat korxonalari atrofida xizmat ko'rsatish sohasi (savdo, transport, xizmatlar) rivojlanadi, bu esa shaharlarda urbanizatsiya jarayonini tezlashtiradi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ortiqova F. Sho'rtanim — sarbaland qo'rg'onim. — Qarshi: Nasaf, 2007. 21 b.
2. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T. 2014.
3. A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.-T.: «Barkamol fayz media», 2018. —B. 130.
4. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 14-varaq.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 24-ish, 25-varaq.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 95-ish, 73-74-varaqlar.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 15-ro'yxat, 24-ish, 1-6 varaqlar.
8. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 34-ro'yxat, 21-ish, 1-6 varaqlar.
9. <https://lex.uz/docs/1423450>